

Tursunqulov Mansur Mahmud ògli

"Toshkent Irrigatsiya va qishloq xòjaligini mexanizatsilash muhandislari instituti" Milliy tadqiqot universiteti óqituvchisi

FUTBOL ÒYINIDA TAYYORGARLIK TURLARINING ÒRNI VA AHAMIYATI

Annotatsiya: Futbol, milliy va xalqaro miqdordagi raqobatlar va qiziqishlar bilan markaziy o'rinda turadi. Ushbu sportning tarixiy yuragi tarixiy to'plam, zamonaviy texnologiyalar, strategiyalar, va milliy tamoyillar to'g'risida ko'plab ilmiy tadqiqotlar olib boradi. Maqolada futbol òyining tayyorgarlik turlarining òrni va ahamiyati batafsil yoritilgan.

Kalit sòzlar: Futbol òyininig tayyorgarlik mshg'ulotlari, òyin maydoni, maydon uzunligi, maydon belgilari chiziqlari, xalqaro uchrashuvlar.

KIRISH

Futbol, milliy va xalqaro miqdordagi raqobatlar va qiziqishlar bilan markaziy o'rinda turadi. Ushbu sportning tarixiy yuragi tarixiy to'plam, zamonaviy texnologiyalar, strategiyalar, va milliy tamoyillar to'g'risida ko'plab ilmiy tadqiqotlar olib boradi. O'zbekistonda ham futbol o'z rivojlanish bosqichi bo'lib, sportning ko'pincha tarixi va madaniy fazilariga mashg'ul futbol tarixi keng ko'rib chiqilishi mumkin.

To'p bilan o'yinlar ichida, shubxasiz, futbol boshchilik qiladi. Ushbu sport turi xammabop bo'lganligi tufayli er sharining barcha qit'alarida sportning ushbu turi bilan shugullanuvchilar soni allaqachon o'nlab millionlardan o'tib ketdi. Futbol o'yinini paydo bo'lishi kadim zamonlarga tugri keladi. Greklarda to'p bilan o'ynash faxrli o'yinlar qatorida hamda gimnaziya jismoniy mashg'ulotlar dasturiga kiritilgan. Futbolga o'xshash bo'lgan to'p o'yinlarini tilga olinishini biz Evropa, Osiyo va Amerikada yashagan ko'pgina xalqlarda topamiz. Lekin jismoniy madaniyat va sport tarixi bo'yicha ko'pgina mutaxassislar fikri bo'yicha futbol - bu qadimgi rimliklarni "Garpastup" degan o'yini bo'lganligi va ushbu o'yinni rim legionerlari zabt etilgan mamlakatlar xududlariga, shu jumladan Britaniya orollariga xam kiritganlar. Katta tarixiy davr ichida futbol bilan yoppasiga qiziqish xamda o'yin larni o'tkazishni taqiqlash vaqtlari ham bo'lgan. Masalan: 1313 yilda Angliya kiroli Eduard II shaxar ichida tup bilan o'yinlar utkazishni ta'kiklagan, chunki o'yinlar davomida nafakat tartibsizliklar bular edi, balki o'yinlar shaharliklarni kundalik ishlaridan qoldirar edi. Eduarda II-ning vorisi Eduard III 1349 yilda futbolni Londonda o'tkazilishini ta'qiqlash haqida farmon chiqaradi, Frantsiya qiroli Karl V 1369 yilda barcha xalq o'yinlarini umuman ta'qiqlagan. Italiyada (1400 yil) esa biz umuman teskari holatni kuzatamiz, u erda futbol asosan zodagonlarni o'yini bo'lib, bu holat xech shubxasiz sportning ushbu turini rivojlanishiga juda katta axamiyat kasb etgan.

Futbol rivojlanishining zamonaviy bosqichi XIX asrdan, aniqrog'i 1863 yil 26 oktyabrdan boshlanib, Londonda futbol assotsiatsiyasi tashkil etilgan xamda 13 moddadan iborat birinchi rasmiy o'yin qoidalari tasdiqlangan. Futbolning ushbu o'yin qoidalarida o'yin uchun maydon o'lchovlari belgilanib, ular quyidagilarni tashkil etgan: maydon uzunligi - 200 yardov (183 m.) kengligi - 100 yardov (91 m.), darvozalar ikkita ustunlardan iborat bo'lib, 8 yard (7,32 m.) masofada joylashtirilishi kerakligi belgilangan, tepadagi tusik kuzda tutilmagan edi, fakat 3 yildan sung darvozalar balandligi chegaralandi. Buning uchun ustunlar o'rtasida arqon o'tkazilgan, 1876 yilda arqonni taxtadan qilingan erdan 2,44 m balandlikda bo'lgan to'siqqa almashtirildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Yuqorida tanishganimizdek, futbol o'yni to'p o'ynaladigan o'yinlar orasidan dunyo bo'ylab eng mashhuri hisoblanib, o'yinchilar ham shunga loyiq tarzda tayyorgarlik ham ko'rishini muhimdir. Buning uchun esa avvalo, o'yinchilar nazariy ma'lumotlarni olishlari kerak, masalan, birinchi bo'lib o'yin maydoni va uning umumiy uzunligi, o'yin qoidalari, o'yin taktikalari, jarimalar, o'yin haqida tarixiy ma'lumotlar, xalqaro uchrashuvlar, o'yinga oid moddalar haqida umumiy ma'lumotlarga ega bo'lishlari juda ham zarur. Albatta, bu o'yinning tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, futbol o'yni qadim zamonlardan greklardan kelib chiqadi va ushbu o'yin esa ularning faxrli o'yinlaridan biri hisoblangan. Shundan keyin esa dunyo bo'ylab bu o'yinga yoppasiga qiziqish uyg'onadi, ammo qirollar biroz vaqt mobaynida ushbu o'yinni ta'qiqlar belgilaydi, chunki o'yin mobaynida juda ham tartibsizliklar yuzaga keladi. Lekin, biroz vaqtdan so'ng bu ta'qiqlar bekor qilinadi. Shuningdek, maydon kengligi 100 metr, uzunligi esa o'rtacha 45 metr maksimum esa esa 90 metrgacha bo'ladi. O'yinchilar esa har bir jamoadan 11 nafardan bo'lib, o'yinchilar ham yetarlicha mashg'ulotlardan o'tgan bo'lishlari, o'yin haqida barcha ma'lumotlarga ega bo'lishlari lozimdir.

O'yinchilar barcha qoidalarga amal qilishlari hatto o'yin maydonidagi har bir chiziq'larga ham e'tibor qaratib, amal qilishlari kerak. Har bir jamoaning esa o'zlarining uzoq yillik tajribaga ega murabbiylari bo'ladi va ular o'yinchilarning har bir xatti-harakatlari uchun ma'sul shaxs hisoblanadi. O'yin qoidalarini yaxshilab tushunib, qanday vaziyatlarda jarimaga tortilishlari va ochkolarga ega bo'lishlari mumkinligi haqida bilishlari kerak. O'yinchilardan tashqari, darvozabonning o'z vazifasi bo'lib, u o'yinga qatnashishi mumkin faqatgina u raqib tomondan kirayotgan to'pni darvozaga kirishini oldini olish muhim hisoblanadi. O'yinchilarga esa har bir jarimalari uchun turli xil rangdagi kartochkalar bilan ular ogohlantiriladi va qayta takrorlanmasliklari zarur, o'yin esa 45 daqiqadan ikkita tanaffuslardan iborat. O'yin to'pining og'irligi esa 120-140 gramm bo'ladi. O'yin oxirida esa g'olib jamoalar esa albatta turli xil sovg'alalar bilan taqdirlanishadi.

XULOSA

Xulosa qilib aytishim mumkinki, ushbu o'yin tayyorgarligi mobaynida o'yinchilar asosan soatlab trenoverovka bilan shug'ullanishi juda ham muhim hisoblanadi. Ularning hech qachon bosh qolib ketmasligi, bosh qolishlari bilanoq o'yin mobaynida kerak bo'ladigan zaruriy bilimlarni olishlari juda muhim ahamiyatga egadir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Akramov J.A Obidov Sh.U. Yosh futbolchilarning musobaqa faoliyatning xususiyatlari. Fan-sport 2007 y.
2. Ahmedov F. N. Jismoniy tarbiya o'qitish metodikasi bo'yicha qo'llanma .T, 2015 y .
3. Goncharova O. V. Yosh sportchilarning jismoniy qobiliyatlarini rivojlantirish .O'quv qo'llanma. O'z DJTI, T,; 2005 y. 171 b.
4. Nurimov R. I . Yosh futbolchilarni texnik va taktik tayyorlash. O'quv qo'llanma. Toshkent, 2005 y.
5. Aliev M. B ., Usmonxojayev T.S., Sagdiyev X. X. Sport o'yinlari -- futbol. --T ., ilm ziyo , 2006 y.